

Adliya vazirligining 2025–2027-yillar uchun budget mablag‘laridan  
foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlarining  
**2025-yilning 9-oylik yakunlari ijrosi yuzasidan**  
**ichki auditi hisoboti**

**2025-yil 16-oktabr**

**Toshkent sh.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-455-son qaroriga muvofiq 2025-yil 30-yanvardagi “Adliya vazirligining 2025–2027-yillar uchun budget mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlarining ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi **33-um-son buyrug‘i** (keying o‘rinlarda – buyruq) qabul qilingan.

Mazkur buyruq bilan, Adliya vazirligining budget mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlarining ijrosi uchun mas‘ul tarkibiy bo‘linma va muassasalar hamda ularning 2025-yildagi ijrosi bo‘yicha choraklar kesimidagi reja ilovaga muvofiq tasdiqlangan.

2025-yilda “Yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish, huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish” bo‘yicha strategik maqsadlarni (keyingi bandlarda - strategik maqsadlar deb yuritiladi) amalga oshirish uchun jami **327,5 mlrd so‘m** mablag‘ rejalashtirilgan bo‘lib, haqiqatda hisobot davrida ajratilgan mablag‘larning **225,8 mlrd. so‘mi 68,95 foiz** o‘zlashtirilgan.

Ajratilgan mablag‘lar hisobiga “Yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish, huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish” bo‘yicha Strategik maqsadni bajarilishi natijasida **6 ta “Yakuniy natija ko‘rsatkichi” 12 ta “Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi”**ni yaxshilash ko‘zda tutilgan.

### **I. Yakuniy natija ko‘rsatkichi.**

**1.1. Notarial idoralarning idoralararo elektron hujjat almashinuvi** maqsadli indikator bo‘yicha yillik rejasi 95 foiz **\*\*** bo‘lib, haqiqatda hisobot davrida **93\*\*** ga yoki yillik rejaga nisbatan 97,9 foizga bajarilgan.

<b>T/r</b>	<b>Fuqarolardan talab qilinadigan hujjatlar</b>	<b>Integratsiya orqali/fuqarodan olinadi</b>
<b>1.</b>	Taraflarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asli (pasport yoki uning o‘rmini bosuvchi hujjatlar)	"Notarius" AAT orqali fuqaroning shaxsini aniqlash imkoniyati yaratildi
<b>2.</b>	Mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat	Fuqarodan olinadi

3.	Agarda mulk umumiy birgalikdagi mulkni tashkil etsa, barcha mulkdorlarning (er-xotinning, ulushli mulk ishtirokchilarining) roziligi	2020 yil 1 yanvardan keyin tasdiqlangan arizalar, ijara shartnomalari va ishonchnomalar "Notarius" AATdan notarius tomonidan olinadi
4.	Yaqin qarindoshligini tasdiqlovchi hujjatlar	"FHDYning yagona elektron arxivi» axborot tizimi orqali olinadi
5.	Nikoh haqidagi ma'lumot	"FHDYning yagona elektron arxivi» axborot tizimi orqali olinadi
6.	Mol-mulkning taqiqlanganligi yoki yo'qligi haqida ma'lumot	"Notarius" AAT orqali elektron ma'lumotlar bankidan olinadi
7.	Doimiy va vaqtincha ro'yxatda turuvchilar haqida ma'lumot	IIVning "Manzil" axborot tizimi orqali olinadi
8.	Kadastrdan ma'lumot	"UZKAD" axborot tizimi orqali olinadi
9.	Chiqindidan qarzdorlikni tekshirish	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 6 yanvardagi PF-5-son Farmoni ijrosi bo'yicha "Notarius" AATda ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlarda chiqindidan qarzdorlikni onlayn rejimda tekshirish imkoniyati yaratildi.
10.	Bitimlarni rasmiylashtirishda fuqarolarning o'zlariga tegishli mulkka nisbatan tashkilotlardan (soliq, kommunal xizmatlar) qarzdorliklarni aniqlash	Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida "Notarius" AAT orqali fuqarolarning o'zlariga tegishli mulkka nisbatan tashkilotlardan (soliq, kommunal xizmatlar) qarzdorliklarni aniqlashning imkoniyati yaratildi
11.	MIB dan qarzdorligi haqidagi ma'lumot	"MIB portal" orqali olinadi
12.	Soliq qarzdorligi haqidagi ma'lumot	Soliq axborot tizimi orqali olinadi
13.	Issiq suvdan qarzdorlik haqidagi ma'lumot	"VEOLIA ENERGY TASHKENT" tizimi orqali olinadi
14.	Sovuq suvdan qarzdorlik haqidagi ma'lumot	"Suvsoz" tizimi orqali olinadi
15.	Gazdan qarzdorlik haqidagi ma'lumot	"Uztransgaz" tizimi orqali olinadi
16.	Elektr energiyadan qarzdorlik haqidagi ma'lumot	"Energohisob" tizimi orqali olinadi
17.	Mulkdorning majburiy badallar yoki to'lovlar bo'yicha qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnoma	"Mening uyim" axborot tizimi orqali olinadi

18.	Kvartira xususiylashtirilgan bo'lsa, xususiylashtirishga rozilik bergan shaxslar to'g'risida ma'lumotnoma	"order.davaktiv.uz" axborot tizimi orqali olinadi
19.	Bitim vakil tomonidan amalga oshirilganda, uning vakolatini tasdiqlovchi hujjat (ishonchnoma)	Fuqarodan olinadi
20.	Meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashash bo'yicha ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma	IIVning "Manzil" axborot tizimi orqali olinadi
21.	Meros qoldiruvchining o'lim guvohnomasi	"FHDYoning yagona elektron arxivi» axborot tizimi orqali olinadi
22.	Meros qoldiruvchining bolalari to'g'risida ma'lumotnoma	"Shajara" dasturi orqali olinadi
23.	Eri (xotini) va ota-onasining qarindoshlik darajasini tasdiqlovchi hujjatlar	"FHDYoning yagona elektron arxivi» axborot tizimi orqali olinadi
24.	Traktorlar, traktor tirkamalari, o'ziyurar va yo'l-qurilish mashinalari uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish Inspeksiyasi –(O'zagroinspeksiyasi) «Agrosanoat majmuida xizmatlar ko'rsatish markazi» davlat unitar korxonasi tomonidan berilgan shakldagi ma'lumotnoma	O'zagroinspeksiya axborot tizimi orqali olinadi
25.	Transport vositasi haqida ma'lumot	IIVning "Avtohisob" axborot tizimi orqali olinadi
26.	Yuridik shaxslarning ro'yxatga olinganligi haqida ma'lumot	Yur.shaxslar bazasi (DXA) orqali olinadi
27.	Agar vasiylikdagi (homiylidagi) shaxs nomidan vasiy (homiyl) shartnoma rasmiylashtirilsa – vasiylik va homiylilik organining roziligi	Fuqarodan olinadi
28.	Shaxsning pasport ma'lumotlari	IIVning pasport tizimi orqali olinadi
29.	Fuqaroning muomalaga layoqatliligi haqida ma'lumot	Oliy sudning muomalaga layoqatsizlar bazasi orqali olinadi
30.	Tug'ilganlik va nikoh guvohnomalari, agar vafot etgan merosxo'r bo'lsa ( o'lim haqidagi guvohnoma, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma, nikoh qayd etilganlik haqidagi guvohnoma) yoki dalolatnoma yozuvidan ko'chirmalar.	"FHDYoning yagona elektron arxivi» axborot tizimi orqali olinadi
31.	Konsullar tomonidan rasmiylashtirilgan notarial harakatlarni qonuniyligini tekshirish	Tashqi ishlar vazirligining axborot tizimi orqali olinadi

32.	Ko'chmas mulklarni davlat ro'yxatidan o'tkazish	"UZKAD" axborot tizimi orqali davlat ro'yxatidan o'tkazishga so'rovnoma yuboriladi hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi yuzasidan ko'chirma olinadi
33.	Garov va ipoteka shartnomalari bo'yicha fuqaroning mol-mulkiga qo'yilgan taqiqlarni bekor qilish	Bank va mikromoliya tashkilotlarining elektron axborot tizimi "Notarius" AAT bilan integratsiya qilindi hamda taqiqlar bank va mikromoliya tashkilotlari tomonidan bekor qilish imkoniyati berildi
34.	Avtomototransport vositalari oldi-sotdi shartnomalarida mulk huquqini tasdiqlovchi hujjat	IIVning "Avtohisob" axborot tizimi orqali olinadi
35.	Avtomototransport vositalari oldi-sotdi shartnomalarida taraflarning shaxsini aniqlash	Masofadan turib avtomototransport vositalari oldi-sotdi shartnomalari rasmiylashtirilganda taraflarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asli (pasport yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlar) talab etish bekor qilinib, taraflarning shaxsini face-id orqali tekshirish imkoniyati yaratildi.
36.	Avtomototransport vositalari hadya shartnomalarida taraflarning shaxsini aniqlash	Masofadan turib avtomototransport vositalari oldi-sotdi shartnomalari rasmiylashtirilganda taraflarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asli (pasport yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlar) talab etish bekor qilinib, taraflarning shaxsini face-id orqali tekshirish imkoniyati yaratildi.
37.	Avtomototransport vositalari hadya shartnomalarida taraflarning shaxsini aniqlash	IIVning "Avtohisob" axborot tizimi orqali olinadi
38.	Garov shartnomalarida taraflarning shaxsini aniqlash	Masofadan turib rasmiylashtirilganda taraflarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asli (pasport yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlar) talab etish bekor qilinib, taraflarning shaxsini face-id orqali tekshirish imkoniyati yaratildi.
39.	Er va xotinning umumiy mol-mulknini tasarruf etish bo'yicha bitim tuzishi uchun xotin (er)ning notarial tartibda tasdiqlangan rozilik arizasida taraf shaxsini aniqlash	Masofadan turib rasmiylashtirilganda taraflarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asli (pasport yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlar) talab etish bekor qilinib, taraflarning shaxsini face-id orqali tekshirish imkoniyati yaratildi.

40	Merosxoʻrning meros ulushidan voz kechish haqidagi arizasida taraf shaxsini aniqlash	Masofadan turib rasmiylashtirilganda taraflarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asli (pasport yoki uning oʻrnini bosuvchi hujjatlar) talab etish bekor qilinib, taraflarning shaxsini face-id orqali tekshirish imkoniyati yaratildi.
41	Bank va tijorat tashkilotlarining taʼsis hujjatlari haqidagi maʼlumotlar	Yur.shaxslar bazasi (DXA) orqali olinadi
42	Mol-mulkka qoʻyilgan taqiqni (xatlovni) bekor qilish yoki bekor qilinganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni Boshqa shaxsga oʻtkazish taqiqlab yoki xatlab qoʻyilgan mol-mulkklar elektron maʼlumotlar bankiga kiritish (har bir mulk uchun)	Notarius AAT orqali elektron maʼlumotlar bankidan olinadi
43	Oʻzbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi vazirligi	Notarius AAT orqali ulushli shartnomalar boʻyicha maʼlumotlar olinadi

Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirishda jami soʻraladigan **43 turdagi** hujjatlarning **40 tasi** "Notarius" AAT hamda boshqa idoralarning axborot tizimi orqali elektron tartibda integratsiyalashgan. Qolgan, 3 turdagi hujjatlar fuqarolarning oʻzidan talab qilib olinib, jami (40/43) 93 foiz hujjatlar idoralararo elektron hujjatlar almashinuvi orqali amalga oshirilib kelingan\*\*\*.

Shunga koʻra, Notarial idoralarning idoralararo elektron hujjat almashinuvi maqsadli indikatori yillik rejaga nisbatan (93/95) **97,9 foizni** tashkil etadi.

**1.2. Tuman (shahar) adliya boʻlimlari huzuridagi Yuridik xizmat koʻrsatish markazlari tomonidan tashkilotlarni qamrab olish darajasi (qonunchilik hujjatlarida Markazlar tomonidan yuridik xizmat koʻrsatilishi belgilangan tashkilotlar soniga nisbatan)** maqsadli indikatori boʻyicha yillik rejasi 90 foiz boʻlib, haqiqatda hisobot davrida 100 ga yoki yillik rejaga nisbatan 112,1 foizga bajarilganligi hisobotda qayd etilgan.

01.10.2025-yil holatiga

T/r	Tashkilot maʼlumoti		Yuridik maqomi		
	Nomi	soni	Yuridik shaxs	Yuridik shaxs emas	Asos
1	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	208	+		PQ2847-son (2017 yil 18 mart) 7-ilova, 7-band Eski. Sohani tartibga soluvchi NHH yoʻq
2	Byudjetdan tashqari pensiya jamgʻarmasi boʻlimi	208		+	PQ-5102-son (2021 yil 4 may) 5-ilova, 6-band Sohani tartibga soluvchi NHH yoʻq

3	Madaniyat bo'limi	208	+		PF-114-son (2023 yil 27 iyul) 4-ilova
4	Tibbiyot birlashmasi	208	+		PQ-197-son (2023 yil 20 iyun) 3-ilova
5	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi	208	+		
6	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	208	+		PF-90-son (2023 yil 10 iyun) 3-ilova
7	Qishloq xo'jalik bo'limi	166	+		PF-90-son (2023 yil 10 iyun) 2-ilova
8	«Suv yetkazib berish xizmati» davlat muassasasi	166	+		PQ-5 (2024 yil 5 yanvar)
9	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limlari	208	+		PF-151-son (2023 yil 28 avgust) 4-ilova
10	Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari	208	+		PQ-347-son qaroriga 5-ilova
11	Davlat o'rmon xo'jaligi	66	+		PQ-2966-son (2017 yil 11 may) 1a-ilova, 27-66-bandlar
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	208	+		VMQ-4-son (2013 yil 10 yanvar) 1-ilova, 3-band
13	Soliq inspeksiyasi	208	+		VMQ-320-son (2019 yil 17 aprel) 1-ilova, 5-band
14	Yoshlar ishlari bo'limi	208	+		Sohani tartibga soluvchi NHH yo'q
15	Maktabgacha va maktab talimi bo'limi	208	+		PF-79-son (2023 yil 26 may) 3-ilova
16	Oila va xotin qizlar bo'limi	208	+	+	PQ-146-son qarori 4-ilova
17	Maktablar	10 224	+		Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 29-moddasi
18	Bog'chalar	6 791	+		Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 29-moddasi
19	Poliklinikalar	1 165		+	PF-6110-son (2020 yil 12 noyabr) 2- ilova PQ-3039-son (2017 yil 6 iyun) 1- ilova, 2-band (Toshkent sh. bo'yicha)
<b>JAMI</b>		<b>21 292</b>	<b>17</b>	<b>3</b>	

Ushbu indikator ko'rsatkichi 2024-yilning yakuni bo'yicha hisobotda xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar soni 21 292 tani tashkil qilgan. Xuddi shuningdek, joriy moliya yilining o'tgan 9-oyligida ham mazkur raqam saqlanib qolgan.

Shunga ko'ra, yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan tashkilotlarni qamrab olish darajasi jami tashkilotlar soniga nisbatan **100 foizda saqlanib turibdi**.

**Izoh:** 2025-yil 18-iyuldagi Vazirlar Mahkamasi yig'ilishining 44-son bayoniga ko'ra, birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilar 2026-2028-yillar uchun maqsadli indikatorlarni ishlab chiqib, 2025-yil 11-avgustga qadar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etishi lozim edi. Shunga binoan, Adliya vazirligi 2026-yil uchun belgilangan cheklangan budjet doirasida indikatorlarni ishlab chiqib taqdim etdi (2026-yil 13-avgustdagi 5/4-1/3882-sonli xat). Ichki audit bo'limining taklifi asosida mazkur indikator 2026-yil ko'rsatkichlaridan chiqarib tashlandi.

**1.3. Litsenziyalash va ruxsat berish hujjatlarini qisqartirish** yillik rejasi **10 foiz bo'lib**, haqiqatda hisobot davrida **13 foiz** yoki yillik rejaga nisbatan **130 foizga** bajarilgan deb hisobotda qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish yukini kamaytirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish orqali aholi va tadbirkorlik subyektlariga qulayliklar yaratishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqilib, 2025-yil 29-martda 25/3-5433-son xat bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan (ID-5433).

Mazkur loyihada **28 turdagi** litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini bekor qilish nazarda tutilgan.

Bugungi kunda "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonunda **222 turdagi litsenziyalash**, ruxsat berish va xabardor qilishga doir faoliyat turlari belgilangan.

Amalga oshirilishi uchun litsenziyalarni olish talab qilinadigan faoliyat turlari (1-ilova) 59 ta;

Amalga oshirilishi uchun ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish talab etiladigan faoliyat (harakatlar) turlari (2-ilova) 124 ta;

Vakolatli organlarni xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari (3-ilova) 39 ta.

Shunga ko'ra, loyiha bilan **13 foiz** litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish nazarda tutilayotgan bo'lsada, **hisobot davrida tegishli normativ huquqiy xujjatlar qabul qilinmaganligi sababli, rejaga nisbatan indikator ko'rsatkichi bajarilmagan**.

**1.4. Litsenziyalash va ruxsat berish hujjatlarini soddalashtirish** maqsadli indikator bo'yicha yillik rejasi **12 foiz bo'lib**, haqiqatda hisobot davrida (*jami 222 ta faoliyat turiga nisbatan 118 tani soddalashtirish natijasida*) **53 foiz** yoki yillik rejaga nisbatan **441,7 foizga** bajarilgan deb hisobotda qayd etilgan.

**Ma'lumot uchun:** Hozirda **118 ta** litsenziya, ruxsat etish hamda xabardor etish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlarini amalga oshirish bilan bog'liq **tartib-taomillar soddalashtirilgan**.

**I. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-oktabrdagi 679-son qarori bilan 8 turdagi ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi yagona nizomga kiritilgan:**

- 1) Parvozlarda xavfsizligiga xavf solishi mumkin bo‘lgan faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsatnoma pasporti; *(2025-yil 15-yanvarda ishga tushirildi);*
- 2) Fuqaro aviatsiyasida ekspluatant sertifikatini pasporti *(2025-yil 15-yanvarda ishga tushirildi);*
- 3) Fuqaro havo kemasi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma pasporti; *(2025-yil 15-yanvarda ishga tushirildi);*
- 4) Fuqaro havo kemasining uchishga yaroqlilik sertifikatini pasporti; *(2025-yil 15-yanvarda ishga tushirildi);*
- 5) Fuqaro havo kemalariga shovqinlar bo‘yicha sertifikat pasporti; *(2025-yil 15-yanvarda ishga tushirildi);*
- 6) Fuqaro havo kemalarining radio jihozlari uchun sertifikat pasporti; *(2025-yil 15-yanvarda ishga tushirildi);*
- 7) Fuqaro havo kemalariga texnik xizmat ko‘rsatish tashkiloti sertifikatini pasporti; *(2025-yil 15-yanvarda ishga tushirildi);*
- 8) Fuqaro aviatsiyasida uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanishga ruxsat berish to‘g‘risidagi xulosa pasporti; *(2025-yil 15-yanvarda ishga tushirildi);*

**Eslatma:** Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-oktabrdagi 679-son qarorining 6-bandida ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran **uch oy o‘tgach (2025-yil 15-yanvar) kuchga kirishi** belgilangan. **Soddalashtirilgan ushbu davlat xizmatlari 2024-yilga mo‘ljallangan indikatorlarga qo‘shilmagan.**

**II. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrdagi 847-son qarori bilan 3 ta xabardor etish faoliyatiga doir tartib-taomillar, 1 ta ruxsat etish xususiyatiga ega tartiblar Vazirlar Mahkamasining 86-son hamda 88-son qarorlariga kiritilgan:**

- 1) Bojxona brokeri faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to‘g‘risida xabarnoma; *(2025-yil 6-martda ishga tushirildi);*
- 2) Xalqaro kurerlik jo‘natmalarini yetkazib berish bo‘yicha faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma; *(2025-yil 6-martda ishga tushirildi);*
- 3) Nodavlat arxivlarni tashkil etish bo‘yicha faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma; *(2025-yil 13-fevralda ishga tushirildi).*
- 4) Maxsus kiritiladigan biologik aktiv moddalar, yangi kimyoviy moddalar, oziq-ovqat qo‘shimchalari, biologik vositalar va materiallar, polimer va plastik massalar, parfyumeriya-kosmetika mahsulotini olib kirish hamda ishlab chiqarish uchun ruxsatnoma; *(2025-yil 24-martda ishga tushirildi).*

**III. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-fevraldagi 91-son qarori** bilan **8 turdagi** davlat xizmatlarini ko'rsatish pasportlari ishlab chiqilib, DXM, "Litsenziya" axborot tizimi hamda YIDXP orqali murojaat qilish imkoniyati yaratilgan:

- 1) Elektr energiyasini ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya;
- 2) Elektr energiyasini uzatish faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya;
- 3) Elektr energiyasini taqsimlash faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya;
- 4) Elektr energiyasini saqlash faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya;
- 5) Elektr ta'minoti faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya;
- 6) Markaziy xarid qiluvchi faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya;
- 7) Elektr energiyasi bozori operatori faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya;
- 8) Elektr energiyasi savdosi faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya.

**IV. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-martdagi 135-son qarorining 115-bandi** bilan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagi **86-son qarori** bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to'g'risidagi yagona nizomda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni qayta rasmiylashtirish jarayonlari soddalashtirildi. Ushbu o'zgartirish orqali Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to'g'risidagi yagona nizomdagi **62 ta** ruxsatnoma pasportlarida belgilangan faoliyat turlarida ruxsatnomani qayta rasmiylashtirish jarayonlari soddalashtirilishiga erishildi.

**V. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-martdagi 135-son qarorining 113-bandi** bilan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi **80-son qarori** bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomda litsenziyani qayta rasmiylashtirish jarayonlari soddalashtirildi. Ushbu o'zgartirish orqali Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomdagi **36 ta** litsenziya pasportlarida belgilangan faoliyat turlarida litsenziyani qayta rasmiylashtirish jarayonlari soddalashtirilishiga erishildi.

Shunga ko'ra, maqsadli indikator (*jami 222 ta faoliyat turiga nisbatan 118 tani soddalashtirish natijasida*) **53 foiz yoki yillik rejaga nisbatan 442 foizni tashkil etadi.**

**1.5. Qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish natijasida ularning sonini qisqartirish** maqsadli indikator bo'yicha yillik reja **15 foiz** bo'lib, haqiqatda hisobot davrida **451 ta (2,5 foiz)** maqbullashtirilgan. 2024-2025-yilning 9-oyligi yakuniga ko'ra,  $(2981+451)=3432$  **ta (19,5 foiz)** maqbul-lashtirilgan yoki yillik rejaga nisbatan **130 foiz** debhisobotda qayd etilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-apreldagi 268-son qaroriga asosan, mazkur vazifani amalga oshirish mexanizmi sifatida qonunchilik bazasidagi mavjud

hujjatlarni xatlovdan o'tkazish hamda xatlov natijasida o'z ahamiyatini yo'qotgan, bekor qilingan qonunchilik hujjatlari yuzasidan tahliliy ma'lumot berish belgilangan.

Ta'kidlash lozimki, 2024-yilda qonunchilik hujjatlarining tartibga solish yuki **17 foizga** qisqartirilganligi yuzasidan 2024-yil 23-dekabrda 11/32-1/1595-son xat bilan Hukumatga axborot berilgan.

Shuningdek, qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish natijasida 2025-yilning 9-oyligida 451 ta qonunchilik hujjati bekor qilindi. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasidagi mavjud 18 mingdan ortiq amaldagi qonunchilik hujjatlarining tartibga solish yuki **2,5 foizga** qisqartirishiga erishilgan. *(451 ta qonunchilik hujjatlari ro'yxati ilova qilinadi)*

***Ma'lumot uchun:** 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-16-son Farmonining 12-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasining qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvi tashkil etish yo'nalishi bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan Maqsadli ko'rsatkichlarda Qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish natijasida ular sonini 2030-yilga qadar 30 foizga qisqartirish, shuningdek, 2025-yilga 5 foizga qisqartirish nazarga tutilgan.*

*2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga hamda Adliya vazirining 2024-yil 5-fevraldagi 36-um-son buyrug'iga asosan 2024-yilda qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish natijasida ular sonini 10 foizga qisqartirish, Adliya vazirining 2025-yil 30-yanvardagi 33-um-son buyrug'ida mazkur ko'rsatkichni 2025-yil 9-oyligida 3 foizga oshirgan holda 13 foizga yetkazish belgilangan.*

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilik hujjatlarining tartibga solish yukini kamaytirish maqsadida ularni maqbullashtirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan va Hukumatga kiritilgan:

1) 24 ta qonunni o'z kuchini yo'qotgan deb topishni nazarda tutuvchi "Qonunchilik bazasi tizimlashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi qonun loyihasi (ID-5402) ishlab chiqildi hamda 2025-yil 15-martdagi 1-7-6/1-39-son xat bo'yicha;

2) 124 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlarini bekor qilish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni loyihasi (ID-5827) ishlab chiqildi hamda 2025-yil 2-mayda 1-7-6/1-74-son xat bo'yicha;

3) 333 ta Hukumat hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi (ID-6397) ishlab chiqildi va 2025-yil 13-avgustdagi 1-7-6/1-173-son xat bo'yicha;

4) mudofaa sohasida Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda 32 ta o'z ahamiyatini yo'qotgan, kollizion va (yoki) takrorlovchi normalarga ega bo'lgan hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni loyihasi (ID-4967) ishlab chiqildi hamda 2025-yil 14-martdagi 1/35/551-son xat bo'yicha;

5) jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini muhofaza qilish sohasida ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda 33 ta o'z ahamiyatini yo'qotgan, kollizion va (yoki) takrorlovchi normalarga ega bo'lgan hujjatlar (hujjatlarining tarkibiy qismi) aniqlandi hamda ularni o'z kuchini yo'qotgan deb topish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni loyihasi (ID-5708) ishlab chiqildi va 2025-yil 14-maydagi 1/860-son xat bo'yicha;

6) sanoat xavfsizligi sohasida 35 ta o'z ahamiyatini yo'qotgan hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqildi hamda 2025-yil 30-iyundagi 02/25-10-14357-son hamda 02/25-10-14346-son xatlar bo'yicha:

a) "Sanoat sohasidagi Qonunchilik tizimlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni loyihasi (ID-6543);

b) "Sanoat sohasidagi Qonunchilik tizimlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi (ID-6546);

7) tashqi ishlar sohasida 16 ta normativ-huquqiy hujjatda belgilangan normalarni yagona hujjatga birlashtirish, 22 ta Hukumat qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish hamda 1 ta Vazirlar Mahkamasi qaroriga tizimlashtirish nuqtai nazaridan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda "Tashqi ishlar sohasidagi qonunchilik tizimlashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi (ID-6640) ishlab chiqildi hamda 2025-yil 21-avgustdagi 07-2/20300-son xat bo'yicha;

**Yakuniy natija ko'rsatkichi** erishish bo'yicha mazkur indikator ko'rsatkichi mas'ul boshqarma tomonidan taqdim etilgan hisobotda 2024-yil hamda 2025-yilning 9-oylik yakuniga ko'ra, qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish natijasida tartibga solish yukini qisqartirish holati **19,5 foizga** yetkazilganligini to'g'risida qayd etilgan. 2024-2025-yilning 9-oyligi yakuniga ko'ra, bekor qilingan (2981+451)=3432 tayetkazilganligini to'g'risida qayd etilgan.

**1.6. Umumiy tUSDagi, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarning ulushini oshirish** maqsadli indikator bo'yicha yillik rejasi 10 foiz bo'lib, haqiqatda joriy yilning 9-oyligida 15 ta (**5 foiz**) umumiy tUSDagi, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi yaxlit qonunlar qabul qilingan. 2024-2025-yilning 9-oyligi yakuniga ko'ra, milliy qonunchilik bazasidagi umumiy tUSDagi, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarning ulushi **(6+5)=11 foizga** yetkazilganligini to'g'risida qayd etilgan. Yillik rejaga nisbatan **110 foizga** bajarilganligi hisobotda qayd etilgan.

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qaroriga hamda Adliya vazirining 2024-yil 5-fevraldagi 36-um-son buyrug'iga asosan 2024-yilda umumiy tUSDagi, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarning ulushini 5 foizga yetkazish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni hamda Adliya vazirining 2025-yil 30-yanvardagi 33-um-son buyrug'ida esa mazkur ko'rsatkichni 2025-yil 9-oyligida 3 foizga oshirgan holda 8 foizga yetkazish belgilangan.*

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-apreldagi 268-son qaroriga asosan, mazkur vazifani amalga oshirish mexanizmi sifatida qonunchilik bazasidagi mavjud hujjatlarni xatlovdan o'tkazish hamda xatlov natijasida umumiy tUSDagi, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarni aniqlash, natijalari yuzasidan tahliliy ma'lumot berish belgilangan.

Hozirgi kunda, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasida tegishli sohalarni tartibga soluvchi 301 ta yaxlit amaldagi qonunlar mavjud.

Ta'kidlash lozimki, 2024 yilda mazkur ko'rsatkich 6 foizga yetkazilganligi yuzasidan 2024 yil 25 dekabrda 11/32-1/1595-1-son xat bilan Hukumatga axborot berilgan. O'tgan 2024-yilning hisobotida indikator ko'rsatkichi 6 foizga yetkazilganligi qayd qilib o'tilgan.

2025-yilning 9-oyligida 15 ta (5 foiz) umumiy tUSDagi, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi yaxlit qonunlar qabul qilindi.

**Yakuniy natija ko'rsatkichi** erishish bo'yicha mazkur indikator ko'rsatkichi mas'ul boshqarma tomonidan taqdim etilgan hisobotda 2024-2025-yilning 9-oyligi

yakuniga ko'ra, milliy qonunchilik bazasidagi umumiy tUSDagi, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarning ulushi (6+5)=**11 foizga** yetkazilganligini to'g'risida qayd etilgan.

## **II. Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi.**

**2.1.(7) O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi orqali normativ-huquqiy hujjatlar matni bilan tanishish ko'lami (ko'rishlar soni)** maqsadli indikatori bo'yicha yillik rejasi 38 000 ming nafar bo'lib, haqiqatda hisobot davrida 28 500,2 ming nafar yoki yillik rejaga nisbatan 75 foizga bajarilganligi hisobotda qayd qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi orqali normativ-huquqiy hujjatlar matni bilan tanishish bo'yicha foydalanuvchilar soni (ming nafar birlikda) 38 000 ming nafar yetkazish belgilangan. Joriy yilning o'tgan 9 oyligida 28 500,2 ming nafar foydalanuvchilar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar matni bilan tanishilgan.

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi davlat muassasasining 2025-yil 07-oktyabrdagi 30-6/2-1/209-sonli xati bilan O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi orqali normativ-huquqiy hujjatlar matni bilan tanishish bo'yicha joriy yilning 9 oyli bo'yicha foydalanuvchilar soni to'g'risida ma'lumot berilgan.*

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi orqali normativ-huquqiy hujjatlar matni bilan tanishgan foydalanuvchi soni aniqlangan rejaga nisbatan hisobot davrida **75 foizni** tashkil etadi.

**2.2.(8) Ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni** maqsadli indikatori bo'yicha yillik rejasi 21 000 ming ta bo'lib, haqiqatda hisobot davrida 20 911,0 ming ta yoki yillik rejaga nisbatan 99,6 foizga bajarilgan deb hisobotda qayd etilgan.

Mazkur indikator ko'rsatkichi, joriy yil hisobot davrida jami ko'rsatilgan davlat xizmatlari soni 20 911 tani tashkil etmoqda.

Shunga ko'ra, ko'rsatilgan davlat xizmatlari soni maqsadli indikatori yillik rejaga nisbatan **99,6 foizni** tashkil etadi.

**Ma'lumot tariqasida:** 1) Mas'ul boshqarmalar taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, jami ko'rsatilgan davlat xizmatlari soni 38 539,7 ming tani, shundan: Davlat xizmatlari markazlarining xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 20 911,0 ming tani tashkil qiladi.

2) Vakolatli organlar axborot xizmatlari orqali (Raqamli texnologiyalar vazirligining my.gov.uz axborot tizimi orqali) ko'rsatilgan jami davlat xizmatlari soni 27 781,8 ming tani, shundan: adliya vazirligi (Davlat xizmatlari markazlari) tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar bilan bir xil ajratib olinib hisoblab chiqarilganda jami 10 153,1 ming tani tashkil etadi.

**2.3.(9) Davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullarini qo'llagan holda optimallashtiriladigan hujjatlar soni** maqsadli indikatori bo'yicha yillik rejasi **125 ta** bo'lib, haqiqatda hisobot davrida **253 ta** yoki yillik rejaga nisbatan 202,4 foizga bajarilgan deb hisobotda qayd etilgan.

Adliya vazirligining budget mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarning ijrosi uchun mas'ul tarkibiy bo'linma va muassasalar hamda ularning 2025-yildagi ijrosi bo'yicha choraklar kesimidagi (o'sib borish tartibidagi) rejaning 9-bandida davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini biznes jarayonlarini reinjining qilish (BPR) usullarini qo'llagan holda **125 ta** xizmatni optimallashtirish belgilangan.

T/r	Davlat xizmati nomi	Amaldagi qadamlar soni	Qolgan qadamlar soni	Amaldagi qadamlar ichidagi ma'lumot va hujjatlar	Qolgan qadamlar ichidagi ma'lumot va hujjatlar	Optimallashtirilgan hujjatlar soni
1	2	3	4	5	6	7=(5-6)
1.	Elektr energiyasini hisobga olish tizimini plombalash va elektr ta'minoti shartnomasini tuzish	3	1	Jismoniy shaxs – 10	Jismoniy shaxs – 4	6
				Yuridik shaxs - 13	Yuridik shaxs - 5	8
2.	Quvvati 20 kVtdan yuqori bo'lgan elektr energiyasi iste'molchilari uchun elektr ta'minoti loyihasini kelishish	3	1	Yuridik shaxs - 7	Yuridik shaxs - 4	3
3.	20 kVt dan yuqori bo'lgan elektr tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olish	3	2	Jismoniy shaxs – 11	Jismoniy shaxs – 7	4
				Yuridik shaxs - 14	Yuridik shaxs - 8	6
4.	Quvvati 20 kVtdan yuqori bo'lgan elektr energiyasi iste'molchilarining elektr qurilmalarini ishga tushirish uchun bayonnoma olish	5	2	Yuridik shaxs - 24	Yuridik shaxs - 6	18
5.	Energiya tejoychi qurilma sotib olishni	2	1	Jismoniy shaxs – 8	Jismoniy shaxs – 4	4

	moliyalashtirish uchun ariza yuborish			Yuridik shaxs - 10	Yuridik shaxs - 6	4
6.	Tabiiy gazni hisobga olish uskunasi (hisoblagichini) yechish va o'rnatishga ariza yuborish	2	2	Jismoniy shaxs - 5	Jismoniy shaxs - 3	2
				Yuridik shaxs - 7	Yuridik shaxs - 5	2
7.	Tabiiy gazni hisobga olish qurilmasini plombalash	3	3	Jismoniy shaxs - 10	Jismoniy shaxs - 9	1
				Yuridik shaxs - 11	Yuridik shaxs - 10	1
8.	Yovvoyi hayvonlarni tutish uchun ruxsatnoma olish	3	2	Jismoniy shaxs - 19	Jismoniy shaxs - 9	10
				Yuridik shaxs - 17	Yuridik shaxs - 10	7
9.	Yovvoyi o'simliklarni va ularning qismlarini olib kirish va olib chiqish uchun yangi ruxsatnoma olish	3	3	Jismoniy shaxs - 15	Jismoniy shaxs - 8	7
				Yuridik shaxs - 21	Yuridik shaxs - 16	5
10.	Yovvoyi xayvonlar saqlanadigan va urchitiladigan pitomniklarni, shuningdek zoologiya kolleksiyalarini xisobga qo'yish to'g'risidagi guvohnoma olish	3	3	Jismoniy shaxs - 14	Jismoniy shaxs - 10	4
				Yuridik shaxs - 22	Yuridik shaxs - 18	4
11.	Agroxizmatlar markazi (AKIS) o'quv kurslarida malaka oshirish uchun ariza berish	3	2	Jismoniy shaxs - 8	Jismoniy shaxs - 4	4
12.	Traktorch-mashinist guvohnomasini almashtirish yoki yo'qolgani o'rniga yangisini olish	4	3	Jismoniy shaxs - 11	Jismoniy shaxs - 6	5
13.	Traktorch-mashinist guvohnomasini olish uchun imtihon topshirishga ruxsat berish	4	3	Jismoniy shaxs - 11	Jismoniy shaxs - 7	4

14.	Sovuq suv hisoblagichini yechish, o'rnatish va tamg'alashga ariza yuborish	2	2	Jismoniy shaxs – 8	Jismoniy shaxs – 6	2
				Yuridik shaxs – 14	Yuridik shaxs – 8	6
15.	O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobga kiritilmagan yovvoyi hayvonlarni, ularning qismlarini, shuningdek yashash faoliyati mahsulotlarini olib kirish va chetga olib chiqish ruxsatnoma olish	3	3	Jismoniy shaxs - 22	Jismoniy shaxs - 15	7
16.	Sun'iy suv ob'ektlaridan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste'mol qilishga ruxsatnoma olish	3	3	Jismoniy shaxs - 16	Jismoniy shaxs - 10	6
				Yuridik shaxs - 16	Yuridik shaxs-15	1
17.	Gid-tarjimon, ekskursiya yetakchisi va yo'riqchi-yo'l boshlovchilarga malaka sertifikatini berish	4	2	Jismoniy shaxs - 15	Jismoniy shaxs - 10	5
18.	Ekologik auditorning malaka sertifikatini berish, qayta rasmiylashtirish	3	2	Jismoniy shaxs - 7	Jismoniy shaxs - 4	3
19.	Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini hisobdan chiqarish uchun ariza yuborish	4	3	Jismoniy shaxs – 17	Jismoniy shaxs – 6	11
				Yuridik shaxs - 19	Yuridik shaxs - 6	13
20.	Veterinariya xizmati mutaxassislarining malakasini oshirish	2	1	Jismoniy shaxs – 6	Jismoniy shaxs – 4	2
				Yuridik shaxs – 7	Yuridik shaxs – 4	3
21.	Naslchilik xo'jaligi maqomini berish	4	3	yoJismoniy shaxs – 17	Jismoniy shaxs – 7	10
				Yuridik shaxs -19	Yuridik shaxs -10	9
22.	20 kVt dan yuqori bo'lmagan elektr	3	3	Jismoniy shaxs – 13	Jismoniy shaxs – 8	5

	tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olish			Yuridik shaxs - 15	Yuridik shaxs - 9	6
23.	Oilaviy mehmon uylari, xostellar, o'tovli va chodirli oromgohlar tashkil etish	3	3	Jismoniy shaxs – 11	Jismoniy shaxs – 8	3
				Yuridik shaxs - 17	Yuridik shaxs - 10	7
24.	Suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste'mol qilishga ruxsatnoma berish (tabiiy suv ob'ektlaridan)	3	3	Jismoniy shaxs - 17	Jismoniy shaxs - 11	6
25.	Oilaviy mehmon uylari, xostellar, o'tovli va chodirli oromgohlar va mehmon uyini reestrndan chiqarish hamda kamchiliklarini to'g'rilash	3	3	Jismoniy shaxs – 10	Jismoniy shaxs – 6	4
				Yuridik shaxs - 17	Yuridik shaxs - 7	10
26.	Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini ro'yxatda tur-ganligi to'g'risida ma'lumotnoma olish	2	2	Jismoniy shaxs – 8	Jismoniy shaxs – 3	5
27.	Sovuq suv hisoblagichini yechish, o'rnatish va tamg'alachga ariza yuborish	2	2	Jismoniy shaxs – 7	Jismoniy shaxs – 4	3
28.	Maktabgacha, umumiy o'rta va mak-tabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish	3	2	Jismoniy shaxs – 21	Jismoniy shaxs - 13	8
29.	Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida shahodatnomaning dublikatini berish	2	2	Jismoniy shaxs – 14	Jismoniy shaxs – 9	5
30.	Pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash imtihoni natijalari	2	2	Jismoniy shaxs – 8	Jismoniy shaxs – 4	4

	yuzasidan apellyatsiya berish					
	<b>JAMI</b>					<b>253</b>

**Ma'lumot uchun:** Adliya vazirligi tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligiga yuborilgan 2025-yil 5-mart 25/8-1873/8-son xat, 2025-yil 5-mart 25/8-1875/8-son xat, 2025-yil 5-mart 25/8-1876/8-son xat, 2025-yil 5-mart 25/8-1872/8-son xat, 2025-yil 5-mart 25/8-1862/8-son xat, 2025-yil 5-mart 25/8-1871/8-son xat.

**Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi** davlat xizmatlarining foydalanish jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilib, elektron tizimga o'zgartirish kiritish uchun **Raqamli texnologiyalar vazirligiga** tegishli xatlar chiqarilgan.

Shunga ko'ra, joriy yilning 9-oyligi davomida jami **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi 253 ta** yoki yillik rejaga nisbatan **202,4 foizni** tashkil etadi.

**2.4.(10)Kompozit va proaktiv tarzda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini oshirish** maqsadli indikatori bo'yicha yillik rejasi **15 ta** bo'lib, haqiqatda hisobot davrida **25 ta** yoki yillik rejaga nisbatan **166,7 foizga** bajarilgan deb hisobotda qayd etilgan.

**I. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda 847-son qarori bilan 11 turdagi** proaktiv va kompozit davlat xizmatlari joriy etilishi belgilandi.

*Izoh: Qarorning 2-bandida vakolatli organlarga Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda (2025-yil 18-fevralgacha) ushbu qaror bilan belgilangan davlat xizmatlarini proaktiv va kompozit shakllarda ko'rsatish imkoniyatini yaratish topshirig'i yuklatilgan.*

### **Kompozit davlat xizmatlari:**

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va reyestrda ko'chirma berish — ushbu manzilga doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olish; **(2025-yil 18-fevralda ishga tushirildi);**

- 1) Ko'chmas mulk ijara yoki tekin foydalanish shartnomalarini soliq organlarida hisobga qo'yish — ushbu manzilga vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish; **(2025-yil 18-fevralda ishga tushirildi);**
- 2) Yadroviy va radioaktiv materiallar, radiatsiya manbalari, radioaktiv chiqindilar va qurilmalarni tashish shartlari va usullarining sanitariya qoidalariga muvofiqligi to'g'risida xulosa — xavfli yuklarni tashish uchun sig'imlarning yaroqliligi to'g'risida xulosa; **(2025-yil 18-fevralda ishga tushirildi);**
- 3) Rentgen uskunasi foydalanish uchun ruxsatnoma — tibbiy faoliyat uchun litsenziya berish; **(2025-yil 18-fevralda ishga tushirildi);**
- 4) "E-auksion" elektron savdo platformasida g'oliblik uchun rasmiylashtirilgan bayonnomani olish va ko'chmas mulkka nisbatan kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish hamda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni kompozit shaklda ko'rsatish; **(2025-yil 18-fevralda ishga tushirildi);**

- 5) Bino yoki inshootni bir yildan kam bo‘lmagan muddatga ijaraga berishda ijara shartnomasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish; *(2025-yil 18-fevralda ishga tushirildi)*;

**II. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-yanvardagi 30-son qarori bilan 1 ta kompozit xizmat joriy etildi.**

- 1) Investorni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish.

**III. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-martdagi 135-son qarori bilan 2 ta kompozit xizmat joriy etildi:**

- 1) Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishda elektron onlayn-auksion savdo g‘olibining ishtirokisiz kompozit tarzda yakka tartibdagi tadbirkor sifatida dehqon xo‘jaligini tashkil etish;
- 2) Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi tugatilganda, qayta tashkil etilganda (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish va o‘zgartirish) tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning avtomatlashtirilgan tizimi tomonidan fermer xo‘jaligi tugatilganligi yoki qayta tashkil etilganligi to‘g‘risida vakolatli organga kompozit tarzda xabarnoma yuborish.

#### **Proaktiv davlat xizmatlari:**

- 1) Elektr energiyasini hisobga olish uskunalarini davriy qiyoslashdan o‘tkazish *(2025-yil 18-fevralda ishga tushirildi)*;
- 2) Tabiiy gazni hisobga olish uskunalarini davriy qiyoslashdan o‘tkazish *(2025-yil 18-fevralda ishga tushirildi)*;
- 3) Ichimlik suvini hisobga olish uskunalarini davriy qiyoslashdan o‘tkazish *(2025-yil 18-fevralda ishga tushirildi)*;
- 4) Issiq suvni hisobga olish uskunalarini davriy qiyoslashdan o‘tkazish *(2025-yil 18-fevralda ishga tushirildi)*;
- 5) Xususiy bandlik agentliklarini Xususiy bandlik agentliklarining reestriga kiritish *(2025-yil 18-fevralda ishga tushirildi)*.

*Izoh: Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda 847-son qarori bilan joriy etilgan proaktiv va kompozit davlat xizmatlari 2024-yilga mo‘ljallangan indikatorlarga qo‘shilmagan.*

**IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-oktabrdagi PQ–353-son qarori bilan 1 ta proaktiv xizmatlar joriy etildi.**

- 1) Fuqarolarga yoshga doir pensiyalarni tayinlash.

*Izoh: Mazkur qarorning 1-bandi “b” kichik bandida 2025-yil 1-martdan boshlab fuqarolarga yoshga doir pensiyalarni proaktiv shaklda tayinlash tartibi joriy etilishi belgilangan.*

**V. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 211-son qarori bilan 1 ta proaktiv xizmatlar joriy etildi.**

1) Hunarmandchilik faoliyati subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bir vaqtda "O'zbekagrosanoati" uyushmasiga a'zo bo'lish uchun ariza yuborish **1 ta kompozit xizmat** joriy etildi.

**VI. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-iyundagi 398-son qarori bilan 4 ta proaktiv xizmatlar** joriy etildi.

1) Nogironlik pensiyasini proaktiv shaklda tayinlash.

2) Nogironlik pensiyasini kamida bir yil ish stajiga ega bo'lganda har ikki yilda proaktiv shaklda qayta hisoblash.

3) Ko'rish qobiliyati bo'yicha I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga kompensatsiya pul to'lovini proaktiv shaklda tayinlash.

4) Yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan shaxslarga kompensatsiya pul to'lovlarini proaktiv shaklda tayinlash.

**VII. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-avgustdagi 500-son qarori bilan 5 ta proaktiv xizmatlar** joriy etildi.

1) sport-ta'lim muassasasining yo'riqchi-uslubchisi uchun birinchi yoki ikkinchi malaka toifasini olish.

2) sport-ta'lim muassasasining yo'riqchi-uslubchisi uchun oliy malaka toifasini olish.

3) sport-ta'lim muassasasining trener-o'qituvchisi uchun birinchi yoki ikkinchi malaka toifasini olish.

4) sport-ta'lim muassasasining trener-o'qituvchisi uchun oliy malaka toifasini olish.

5) sport hakamlariga malaka toifasini berish.

Shunga ko'ra, kompozit va proaktiv tarzda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushibo'yicha maqsadli indikator ko'rsatkichiyillik rejaga nisbatan **166,7 foizni** tashkil etadi.

**2.5.(11) Davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini soddalashtirish** maqsadli indikator bo'yicha yillik rejasi **28 ta** bo'lib, haqiqatda hisobot davrida **123 tani** yoki yillik rejaga nisbatan **439,3 foizga** bajarilgan deb hisobotda qayd etilgan.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini soddalashtirish maqsadli indikator bo'yicha joriy yilning hisobot davrida **123** tadavlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillari soddalashtirilgan.

***Jumladan:***

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-fevraldagi 65-son qarori bilan - 2 ta;

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-fevraldagi 72-son qarori bilan - 1 ta;

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-fevraldagi 91-son qarori bilan - 8 ta;

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-fevraldagi 89-son qarori bilan - 2 ta;

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-fevraldagi 102-son qarori bilan - 1 ta;  
Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 127-son qarori bilan - 1 ta;  
Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-fevraldagi 132-son qarori bilan - 1 ta;  
Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-martdagi 135-son qarori bilan - 106 ta;  
Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 208-son qarori bilan - 1 ta;

*Ma'lumot uchun: 8 turdagi davlat xizmatlarini DXM va YIDXP orqali ko'rsatish belgilandi. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son (36 ta litsenziya pasporti mavjud) hamda 22-fevraldagi 86-son (62 ta ruxsatnoma pasporti mavjud) qarorlari bilan tasdiqlangan nizomlarga qayta rasmiylashtirishga doir o'zgartirishlar kiritildi.*

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PF-157-son Farmoni bilan 34 ta.

*Ma'lumot uchun: Mazkur Farmonga muvofiq, 34 turdagi davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini soddalashtirish 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirishi inobatga olinib, ushbu indikator ko'rsatkichi joriy yilning 9-oylik yakunlari bo'yicha hisobotga kiritilmadi.*

Shunga ko'ra, mazkur hujjatlar bilan davlat xizmatlarini ko'rsatish tartib-taomillarini soddalashtirilganlik holati **123 tani** yillik rejaga nisbatan esa **439,3 foizni tashkil etadi.**

**2.6.(12) Advokatlar sonini ko'paytirishga erishish** maqsadli indikator bo'yicha yillik rejasi **800 nafar** bo'lib, haqiqatda hisobot davrida **998 nafar** yoki yillik rejaga nisbatan **124,8 foizga** bajarilgan deb hisobotda qayd etilgan.

2025-yil 1-yanvar holatiga advokatlar reestrda qayd etilgan jami advokatlar soni 6178 tani tashkil etgan. 2025-yilning 9-oyligi davomida quyidagi jadvalda qayd etilgan **998 nafar** advokatlar ro'yxatdan o'tgan. (Ro'yxat ilova qilinadi)

Shunga ko'ra, 2025-yilning 9-oyligi davomida ro'yxatdan o'tgan advokatlar soni jami **998 nafarni** tashkil etgan. Yillik rejaga nisbatan hisobot davrida advokatlik litsenziyasiga ega bo'lgan advokatlar **124,8 foizni tashkil etadi.**

**2.7.(13) Davlat xizmatlari markazlarining xizmatidan foydalanuvchilar soni** maqsadli indikator bo'yicha yillik rejasi **14 000 ming** nafar bo'lib, haqiqatda hisobot davrida 19 796,9 ming nafar yoki yillik rejaga nisbatan 141,4 foizga bajarilgan deb hisobotda qayd etilgan.

Mazkur indikator ko'rsatkichi yuzasidan, Davlat xizmatlari markazlarining xizmatidan foydalanuvchilar soni ko'rsatilgan xizmatlar kesimida quyidagi jadvalda qayd etilgan.

№	Ko'rsatilgan davlat xizmatlari	DXM va FHDYO xizmatlaridan Offline tartibda foydalanuvchilar soni	Davlat xizmatlari markazlarining xizmatidan foydalanuvchilar soni
---	--------------------------------	---	---

1	Yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatilgan (Adliya vazirligi tomonidan qamrab olingan) davlat xizmatlari soni	5 838 435	5 838 435
2	Yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatilgan (Adliya vazirligi tomonidan qamrab olinmagan) davlat xizmatlari soni		10 153 132
3	Tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish bo'yicha ko'rsatilgan davlat xizmatlari soni	674 396	674 396
4	Fuqarolik holati (o'lim, tug'ilish nikoh va ajralish) dalolatnomalarni ro'yxatga olish bo'yicha ko'rsatilgan davlat xizmatlari soni)	1 114 099	
5	Yuridik va jismoniy shaxslarga elektron raqamli imzo kalitini berish davlat xizmatlari soni	1 899 135	1 899 135
6	Litsenziyalash va ruxsatnoma berish bo'yicha ko'rsatilgan davlat xizmatlari soni	407 000	407 000
